

## NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR: ASAB TIZIMI INQIROZI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

*Qo‘qon Universiteti Andijon filiali*  
*Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo‘nalishi*  
***Qobulov Abdulhamid Qodirjon o‘g’li***  
*Email : qobulovabdulhamid3@gmail.com*  
*Tel : + 998 937859131*

**Annotatsiya:** Neyrodegenerativ kasalliklar markaziy asab tizimining surunkali, progressiv va qaytarilmas shikastlanishiga olib keluvchi kasalliklar guruhidir. Ular orasida eng ko‘p uchraydiganlari — Alzheimer kasalligi, Parkinson kasalligi, Xantington xastaligi va amiotrofik lateral skleroz (ALS) hisoblanadi. Ushbu maqolada neyrodegenerativ kasalliklarning asosiy xususiyatlari, patogenezi, klinik belgilari, diagnostikasi, davolash yondashuvlari va ilm-fanga asoslangan yangi izlanishlar yoritilgan. Zamonaviy nevrologiyaning dolzarb yo‘nalishi sifatida bu kasalliklarning erta aniqlanishi va sekinlashtirilishi muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** Neyrodegeneratsiya, Alzheimer, Parkinson, ALS, Xantington, asab tizimi, xotira buzilishi, dopamin, demensiya, hujayra o‘limi.

**Abstract:** Neurodegenerative diseases are a group of diseases that cause chronic, progressive, and irreversible damage to the central nervous system. The most common of them are Alzheimer’s disease, Parkinson’s disease, Huntington’s disease, and amyotrophic lateral sclerosis (ALS). This article reviews the main features, pathogenesis, clinical symptoms, diagnostics, treatment approaches, and new research based on science of neurodegenerative diseases. As a current direction of modern neurology, early detection and slowing down of these diseases is of great importance.

**Keywords:** Neurodegeneration, Alzheimer’s, Parkinson’s, ALS, Huntington’s, nervous system, memory impairment, dopamine, dementia, cell death.

**Аннотация:** Нейродегенеративные заболевания – это группа заболеваний, вызывающих хроническое, прогрессирующее и необратимое поражение центральной нервной системы. Наиболее распространёнными из них являются болезнь Альцгеймера, болезнь Паркинсона, болезнь Гентингтона и боковой амиотрофический склероз (БАС). В данной статье рассматриваются основные признаки, патогенез, клинические симптомы, диагностика, подходы к лечению и новые исследования, основанные на научных данных о нейродегенеративных заболеваниях. Раннее выявление и замедление развития этих заболеваний, являясь актуальным направлением современной неврологии, имеет большое значение.

**Ключевые слова:** Нейродегенерация, болезнь Альцгеймера, болезнь Паркинсона, БАС, болезнь Гентингтона, нервная система, нарушение памяти, дофамин, деменция, клеточная гибель.

**Kirish:** Neyrodegenerativ kasalliklar — bu asab tizimi hujayralarining (neyronlar) sekin-asta yo‘qolib borishi bilan tavsiflanadigan og‘ir kasalliklar guruhidir. Ular inson hayotining kognitiv, harakat, nutq va ruhiy faoliyatlarini izdan chiqaradi. Asosan keksayganlarda uchraydi, ammo ayrim holatlarda yoshlar orasida ham kuzatilmoqda. Hozirgi kunda butun dunyoda demografik o‘sish, umr davomiyligining ortishi ushbu kasalliklar sonining ko‘payishiga olib kelmoqda. Tibbiyotda ularni erta tashxislash va to‘xtatish uchun keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda.

### **Neyrodegenerativ kasalliklarning asosiy turlari:**

#### **Alzheimer kasalligi**

Demensianing eng ko‘p uchraydigan turi. Miya po‘stlog‘ida beta-amiloid blyashkalar va tau oqsillari to‘planishi natijasida xotira, tafakkur va kundalik faoliyat izdan chiqadi.

Belgilari: xotira yo‘qolishi, vaqt va joyda adashish, shaxsiyat o‘zgarishi.

Dastlabki bosqichda: bemor oddiy kundalik ishlarni bajarishda qiynaladi.

So‘nggi bosqichda: bemor yotoqqa mixlanadi, gapirish va ovqat yeish imkoniyati yo‘qoladi.

#### **Parkinson kasalligi**

Bu kasallik dopamin ishlab chiqaruvchi neyronlarning yo‘qolishi bilan bog‘liq.

Belgilari: qaltirash (tremor), harakat sekinlashuvi (bradikineziya), mushak qattiqligi, holsizlik.

Davolash: Levodopa, dopamin agonistlari va jismoniy terapiyalar.

#### **Xantington kasalligi**

Autosom-dominant genetik kasallik. Miya yadrosidagi harakatni boshqaruvchi hududlar zararlanadi.

Belgilari: harakat muvofiqligi yo‘qolishi, ruhiy buzilishlar, tajovuzkorlik, depressiya.

Tashxis: genetik testlar yordamida aniqlanadi.

#### **Amiotrofik lateral skleroz (ALS)**

Motor neyronlarining progressiv degeneratsiyasi bilan kechadigan kasallik.

Belgilari: mushaklarning kuchsizligi, atrofiyasi, nafas olish va yutish funksiyalarining yo‘qolishi.

Davosi yo‘q, ammo Riluzol kabi preparatlar jarayonni sekinlashtiradi.

#### **Etiologiyasi va patogenezi:**

Neyrodegeneratsiya sabablari murakkab va ko‘p omilli. Muhim omillar quyidagilar:

Genetik moyillik: Xantington kasalligi va ba'zi Parkinson holatlari irlsiy.

Protein agregatsiyasi: noto'g'ri yig'ilgan proteinlar neyronlarda to'planadi (masalan, beta-amiloid, tau).

Oksidlovchi stress: erkin radikallar neyronlarga zarar yetkazadi.

Mitoxondrial disfunktsiya: hujayra energiyasi ishlab chiqarilishi buziladi.

Yallig'lanish (neyroinflamatsiya): immun tizimning noto'g'ri ishga tushishi neyron o'limini kuchaytiradi.

Klinik belgilari:

Neyrodegenerativ kasalliklar turiga qarab har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

Xotira va tafakkur buzilishi (Alzheimer)

Mushaklar zaifligi va qaltirashi (Parkinson, ALS)

Harakat muvofiqligining yo'qolishi (Xantington)

Shaxsiyat va ruhiy holat o'zgarishi:

Nutq va yutish buzilishi

Ko'nikmalar yo'qolishi

4. Tashxis usullari

Nevrologik ko'rik

Kognitiv testlar: MMSE (Mini Mental State Examination), MoCA

MRT (Magnit-rezonans tomografiya)

PET va SPECT skanerlar

## **NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR: ASAB TIZIMI INQIROZI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alzheimer's Association. 2024 Alzheimer's Disease Facts and Figures
2. World Health Organization (WHO). Dementia Fact Sheet – 2023
3. Parkinson's Foundation. Understanding Parkinson's Disease.
4. ALS Association. Living with ALS – Guide Series.
5. Harrison's Principles of Internal Medicine. 21st Edition. McGraw-Hill Education, 2022.
6. Ropper AH, Samuels MA, Klein JP. Adams and Victor's Principles of Neurology. 11th Edition. McGraw Hill Education, 2020.
7. Kandel ER, Koester JD, Mack SH, Siegelbaum SA. Principles of Neural Science. 6th Edition. McGraw-Hill Education, 2021.
8. Przedborski S, Vila M, Jackson-Lewis V.
9. National Institute on Aging (NIA).
10. Goedert M, Spillantini MG. A Century of Alzheimer's Disease.